

KONSTITUTSIYA — XALQ UCHUN, YOSHLAR KELAJAGI UCHUN!

Po'latova Munojat

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti

“Tarix” yo'nalishi 1-kurs talabasi

Nurullayeva Shoira

Ilmiy rahbar “Tarix” fanlari nomzodi, dotsent Elektron pochta:munojatpolatova318@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining zamonaviy davlat boshqaruviga ta'siri, fuqarolik jamiyati rivoji hamda inson huquqlarini va erkinliklarini himoya qilishdagi fundamental vazifalari, shuningdek, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar bilan bog'liq ilmiy tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maqolada Konstitutsiya nafaqat davlat boshqaruvining asosiy huquqiy hujjati sifatida, balki jamiyat barqarorligi, adolat va erkinlikni kafolatlovchi ya'ni inson huquqlarini kafolatlash, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy erkinliklarini himoya qilish, xalqimiz ravnaqi va farovonligi yo'lidagi ulkan ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, fuqarolik jamiyati, inson huquqlari, erkinlik va farovonlik, konstitutsiyaviy islohotlar, huquqiy kafolat, jamiyat rivoji.

Аннотация: В статье дан научный анализ влияния Конституции Республики Узбекистан на современное государственное управление, развитие гражданского общества и его основных задач по защите прав и свобод человека, а также конституционных реформ, осуществляемых в последние годы. При этом в статье рассматривается огромное значение Конституции не только как основного правового документа государственного управления, но и как гаранта социальной стабильности, справедливости и свободы, то есть как гарантии прав человека, защиты политических, экономических и социальных свобод граждан, процветания и благополучия нашего народа.

Ключевые слова: Конституция, гражданское общество, права человека, свобода и процветание, конституционные реформы, правовые гарантии, социальное развитие.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the impact of the Constitution of the Republic of Uzbekistan on modern state governance, the development of civil society and its fundamental tasks in protecting human rights and freedoms, as well as the constitutional reforms implemented in recent years. At the same time, the article discusses the great importance of the Constitution not only as the main legal document of state governance, but also as a guarantor of social stability, justice and freedom, that is, as a guarantee of human rights, protection of political, economic and social freedoms of citizens, and the prosperity and well-being of our people.

Keywords: Constitution, civil society, human rights, freedom and prosperity, constitutional reforms, legal guarantees, social development

KIRISH

Konstitutsiyamiz har bir fuqaroning ongi va qalbidan chuqur joy olgan, ularning huquq va erkinliklarini to'liq kafolatlaydigan haqiqiy hayot qomisiga aylanmog'i lozim, - deydi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev.

Har bir davlat mustaqilligining eng muhim timsoli - bu uning Konstitutsiyasidir. Konstitutsiya nafaqat davlat boshqaruvi tizimini belgilab beruvchi huquqiy hujjat, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy qadriyati va ma'naviy kuchining ifodasidir. Konstitutsiya mamlakatda huquqiy davlat va demokratik jamiyat qurishning bosh yo'l xaritasiga aylangan, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlashda, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda va farovon hayot barpo etishda beqiyos ahamiyatga egadir. Mustaqillikning ilk kunlaridayoq davlat va jamiyat taraqqiyotning huquqiy asoslarini yaratish zaruriyati tug'ilgan va O'zbekistonning o'z tarixiy, madaniy, milliy qadriyatlari, zamonaviy demokratik tamoyillar hamda xalqning orzu-intilishlari uyg'unlashgan ushbu qomusimiz qisqa vaqt ichida milliy taraqqiyotning ishonchli mezoniga aylangan. Tarix sahifalariga bitilgan, yillar davomida amalga oshirilgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar aynan shu huquqiy poydevor asosida amalga oshirilganini ko'rish mumkin. Yana shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining qabul qilinishi muhim siyosiy, huquqiy hujjat sifatida jahonda yangi, suveren, istiqboli porloq davlat barpo etilganining o'ziga xos yorqin ishonchnomasi bo'ldi.

Konstitutsiya - xalqning irodasi va davlat barqarorligining timsoli. Unda belgilangan huquqiy tamoyillar erkin va farovon hayotning asosiy kafolatlari bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston yangi Konstitutsiyasi esa zamonaviy, ochiq va adolatli jamiyat barpo etish sari muhim qadam bo'ldi.

Konstitutsiya va unda ko'rsatilgan moddalar zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, yoshlar siyosati, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish, shu bilan birga, barqaror taraqqiyot va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan bevosita bog'liqligini alohida ta'kidlash joiz. Barchamizga ma'lumki, inson huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi, shu bois ularning ustuvorligini ta'minlash, huquqiy kafolatlarini mustahkamlash va amaliy mexanizmlarni takomillashtirish davlat siyosatining markazida turadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasiga ko'ra, " Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi". Shuningdek, Konstitutsiya qoidalari uning miqyosi, ko'lami, shaxsiy va davlat ahamiyatidan qat'iy nazar har qanday huquqiy savolga javob topishda asosiy ko'rsatma hisoblanib, bugungi kunda uning dolzarbligi yanada ortib bormoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli demokratik islohotlar, fuqarolik jamiyatining shakllanishi, inson huquqlarining ustuvor yo'nalishga aylanishi hamda davlat boshqaruvi tizimining yangicha, ochiq va samarali modelga aylanishi konstitutsiyaviy islohotlarni zamon talabi darajasiga ko'tarishni taqazo etadi va aynan shu jarayonlarning mantiqiy davomi sifatida yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilindi. Unga ko'ra shaxs manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish, inson huquq va erkinliklarini yanada kengroq kafolatlash, davlat organlari faoliyatida ochiqlik va mas'uliyat tamoyillarini kuchaytirish kabi g'oyalar ustuvor o'rin egallagan.

Konstitutsiya - xalq qalbidan bunyod bo'lgan eng oliy hujjat, uning har bir bandida millatning orzu - intilishlari muhrlangan. Bu qomus - davlatning bosh ustuni, adolat va tenglikning uzilmaydigan zanjiri, qolaversa bugunimizning tartibga soluvchi, kelajagimizni yorituvchi ishonch chirog'idir desak adashmaymiz. Konstitutsiya bizga faqat huquq bermaydi, balki u bizni Vatan oldidagi burchimizni unutmaslikka ham chorlaydi hamda bizni himoya qiladi, yo'l ko'rsatadi, umid va ishonch bag'ishlaydi. Konstitutsiya nafaqat bugunning, balki ertangi kunning ham huquqiy poydevoridir. Unda ta'limning uzluksizligi, davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi va yoshlarning huquqlarini himoya qilinishi asosiy tamoyil sifatida ko'rsatilgani ilmiy, bilimli va zamonaviy avlodni shakllantirishga xizmat qiladi. Yana bir eng muhim jihatlaridan biri inson huquqlarini davlat tomonidan e'tirof etilishi va himoya qilinishi hamda shaxsning siyosiy, fuqarolik, ijtimoiy - iqtisodiy, madaniy huquqlari mustahkamlanganidir. Konstitutsiyamizda ko'rsatilgan fundamental huquqlar:

□Yashash huquqi;

□So'z va fikr erkinligi;

□Vijdon erkinligi;

□Ta'lim olish huquqi;

□Mehnat qilish huquqi;

□Sog'liqni saqlash huquqi;

□Xususiy mulk daxlsizligi kabilar O'zbekistonni demokratik tamoyillarga sodiq davlat sifatida tanitadi.

So'nggi yillardagi konstitutsiyaviy islohotlar, zamonaviy yondashuvlar, yangilangan normativ asoslari va kiritilgan o'zgarishlar O'zbekistonimizni ochiq, demokratik va adolatli jamiyat sari yanada yaqinlashtirdi.

Shu o'rinda fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishi bo'yicha konstitutsiyada nodavlat, notijorat tashkilotlari, ommaviy-axborot vositalari, jamoatchilik nazorati institutlarining roli kuchaytirilgani jamiyatdagi ishtirokchi boshqaruv modelini shakllantirishga xizmat qilishini alohida ta'kidlash mumkin.

Bundan tashqari ekologiya, iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, xususiy sektor rivoji bilan bog'liq moddalarning kuchaytirilishi O'zbekistonning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ta'minlaydi. Ayniqsa, biz yoshlar uchun sifatli ta'lim, ilmiy izlanishlar, zamonaviy kasb-hunarlarni egallash va innovatsion lohiyalarni amalga oshirishga keng sharoit yaratib, global raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantirishga qaratilgan zamonaviy, huquqiy asosni taklif etadi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlari bugungi globallashuv jarayonida nafaqat jamiyat taraqqiyotining mezonini, balki barqarorlik va farovonlikning bosh omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Har bir fuqaroning sha'ni, erkinligi va huquqlari e'zozlangan jamiyatgina haqiqiy demokratik qadriyatlarga tayanadi va kelajakka qat'iy qadamlar bilan intiladi. Shu ma'noda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar jamiyatda adolat, tenglik va o'zaro hurmat madaniyatini mustahkamlaydi.

Zero, jadal o`zgarayotgan zamonda har bir davlatning nufuzi uning iqtisodiy qudrati yoki mavqeidan emas balki fuqarolariga yaratib berayotgan imkoniyatlari, ularning huquqlarini qanchalik himoya qila olishi bilan baholanmoqda. Shu bois inson huquqlarini himoya qilish yo`lida olib borayotgan yangicha yondashuvlar, keng ko`lamli tashabbuslar va xalqaro aloqalarning mustahkamlanishi yurtimizning ochiqlik, adolat va insonparvarlikka asoslangan yo`lini yanada jadallashtirmoqda.

Ushbu tadqiqot ishi ilmiy yondashuv va amaliy tajribani uyg`unlashtirib, konstitutsiyaviy me`yorlarning jamiyat hayotidagi roli, fuqarolik jamiyati institutlarining mustahkamlanishi hamda erkin va farovon hayot barpo etishdagi ahamiyatini tahlil qiladi.

Shu sababli mazkur maqola yosh tadqiqotchilar va konstitutsiyaviy islohotlarga qiziqqanlarga foydali ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi - Toshkent: O'zbekiston, so'nggi tahriri.
2. SH.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" - Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. SH.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" Toshkent: O'zbekiston, 2023
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Toshkent "O'zbekiston" 2012.
5. Xabibullayev A., Qosimov B. "Konstitutsiyaviy huquq asoslari" - Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.